



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI EMOTSIONAL XAVFSIZ PEDAGOGIK MUHITNI LOYIHALASHGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK YONDASHUVLARI

Salimova Shahlo Sayfulloyevna

Qarshi Davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur tezisda emotsional xavfsizlik tushunchasining mohiyati va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning emotsional xavfsiz pedagogik muhitni loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari, o‘quvchilarning emotsional holati va o‘qituvchining kasbiy mahoratiga ta’siri tahlili keltirilgan. Pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida emotsional xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganilib, mavzu bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: emotsional, xavfsizlik, pedagogik muhit, o‘qituvchi, loyiha, ko‘nikma, ta’lim, innovatsiya, kompetensiya.

Аннотация: в данном тезисе исследуется сущность понятия эмоциональной безопасности и её значение в образовательном процессе. Рассматриваются вопросы формирования у будущих учителей навыков проектирования эмоционально безопасной педагогической среды, а также анализируется влияние эмоционального состояния учащихся и профессионального мастерства учителя. Изучены теоретические и практические основы формирования эмоционально безопасной образовательной среды в процессе подготовки педагогических кадров и по теме выработаны выводы и предложения.

Ключевые слова: эмоциональный, безопасность, педагогическая среда, учитель, проект, навыки, образование, инновация, компетенция.

Abstract: This thesis explores the essence of the concept of emotional safety and its significance in the educational process. It addresses the development of future teachers' skills in designing emotionally safe pedagogical environments and analyzes the impact of students' emotional states and teachers' professional skills. Theoretical and practical foundations for creating an emotionally safe educational environment in the training of teaching staff have been studied and conclusions and recommendations on the topic have been developed.

Keywords: emotional, safety, pedagogical environment, teacher, project, skills, education, innovation, competence.

O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh va yuqori malakali pedagogik kadrlarni tayyorlash muhim hisoblanib, ushbu jarayonda ta’limning sifati nafaqat bilim berish jarayonining samaradorligi bilan, balki emotsional xavfsiz pedagogik muhitni shakllantirish darajasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Emotsional





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



xavfsizlik ta’lim oluvchilarning hissiy holatlarini muvozanatga keltirishga, ularning ijtimoiy va shaxsiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ta’lim jarayonini yangi bosqichga ko‘tarish, xususan, o‘quv muassasalarida ijobiy va xavfsiz ta’lim muhitni yaratish muhim vazifalar qatorida belgilangan. Emotsional xavfsizlik ta’minlangan ta’lim muhiti nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiylarini rivojlantirishda ham asosiy mezonlardan biriga aylanadi. Xususan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Beshinchi davriy ma’ruzasini ko‘rib chiqish yakunlari yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan 2024 — 2027-yillarga mo‘ljallangan milliy harakatlar rejasida xavfsiz ta’lim muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan⁵⁶.

Bugungi kunda ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida emotsional xavfsiz muhitni loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Emotsional xavfsizlikka ega bo‘lgan o‘quv muhiti o‘qituvchi hamda ta’lim oluvchilar o‘rtasida ishonchli va ijobiy munosabatlarni shakllantiradi, bu esa ta’lim jarayonidan ko‘zlangan maqsadga erishishga xizmat qiladi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta’minlash, balki ularni emotsional xavfsiz muhitni loyihalash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish muhim voqelik hisoblanadi. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va o‘quv jarayonida emotsional xavfsiz pedagogik muhitni shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Jadal rivojlanib borayotgan axborot davrida o‘quvchilarda emotsional xavfsizlikni loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishning ta’lim jarayoniga ta’siri alohida yondashuvni talab etadi. Shu sababdan, pedagogik jarayonga milliy qadriyatlar va an’analarni hisobga olgan holda yondashish o‘quvchilar uchun emotsional xavfsiz muhitni shakllantirishda asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi.

O‘qituvchilarning o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyatini shakllantirish, o‘quvchilarning emotsional ehtiyojlarini tushunish va mos ravishda pedagogik muhit yaratishda hamda o‘quvchilarning emotsional xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi⁵⁷. Shuningdek, motivatsiyani oshirish orqali ham o‘qituvchilarning emotsional xavfsizlikni ta’minlashdagi rolini mustahkamlash mumkin⁵⁸. O‘quvchilarda emotsional xavfsiz pedagogik muhitni loyihalash ko‘nikmasini shakllantirishda integrativ o‘qitish metodikasi o‘quv dasturlarida emotsional xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan mavzularni chuqur yoritishga yo‘naltiriladi. Ushbu yondashuvning maqsadi bo‘lib, o‘quvchilarda

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 21.02.2024 yildagi “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha o‘zbekistonning beshinchi davriy ma’ruzasi yuzasidan bmtning bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori, 4068-IV-son.

⁵⁷ Daniel Goleman / Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ/1995.

⁵⁸ D.H Pink/ Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us/2009





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish, stressni boshqarish va samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Reflektiv yondashuv yordamida esa bo‘lajak pedagoglarning o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga erishish mumkin. Bu yondashuv o‘qituvchilarga emotsional xavfsizlikka ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularga mos yechim topish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, psixologik treninglar o‘quvchilarning emotsional ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos pedagogik muhit yaratish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur treninglar ijobiy muhitni shakllantirish hamda stress darajasini kamaytirishda samarali hisoblanadi. Ayniqsa, rolli o‘yinlar orqali real pedagogik vaziyatlar yordamida o‘quvchilarning modellashtirish haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishlarini hamda shu bilimlar asosida emotsional xavfsiz pedagogik muhitni loyihalsh ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish emotsional xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan trening va seminarlarni tashkil etishda katta ahamiyat kasb etib, bu jarayonlarda interaktiv platformalar va maxsus ishlab chiqilgan dasturlar yangi yondashuvlarni amaliyotga joriy qilish imkonini beradi.

Tadqiqotlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha, jamoaviy faoliyat va muloqotga asoslangan mashg‘ulotlar o‘quvchilar orasida birgalikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga va ta’lim jarayonida emotsional xavfsizlikni mustahkamlashga hissa qo‘sadi. Mutanosib tarzda, individual ishlash usullari ham har bir o‘quvchining ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos yondashish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv, o‘z navbatida, emotsional xavfsizlikni ta’minlashning eng samarali usullaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Biz qiyida olib brogan tadqiqot natijalarimizdan kelib chiqqan holda emotsional xavfsiz pedagogik muhitni ta’minlashda ijobiy natija beradigan yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyatini shakllantirdik (1-jadval).

1-jadval

EMOTSİONAL XAVFSIZ PEDAGOGIK MUHITNI TA’MINLASHDA YONDASHUVLAR MAZMUNI VA AHAMIYATI⁵⁹

Yondashuvlar	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
Integrativ o‘qitish	Emotsional xavfsizlik mavzularini chuqur yoritishga qaratilgan o‘quvdasturlarini ishlab chiqish.	O‘quvchilarda empatiya, stressni boshqarish, samarali muloqot va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.
Reflektiv yondashuv	O‘qituvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va emotsional xavfsizlikka ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash.	O‘qituvchilarda o‘z-o‘zini anglash va muammolarni hal qilish bo‘yicha tizimli yondashuvni shakllantiradi.

⁵⁹ Muallif ishlansmasi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Psixologik treninglar	O‘quvchilarning emotsiyallarini aniqlash va ularga mos muhit yaratish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish.	Ijobiy muhitni shakllantirish, stress darajasini kamaytirish, o‘quvchilarning ishonchini oshirishga ko‘maklashadi.
Rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar	Real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.	Emotsional xavfsiz pedagogik muhitni loyihalashda samarali strategiyalarni qo‘llash imkoniyatini yaratadi.
Zamonaviy texnologiyalar	Interaktiv platformalar va maxsus dasturlardan foydalanish orqali o‘quv jarayonini tashkil etish.	Yangi yondashuvlarni amaliyatga joriy qilish va emotsional xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha treninglarni o‘tkazish imkoniyatlarini oshiradi.
Jamoaviy ishslash	Muloqotga asoslangan mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar orasida birgalikda ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish.	O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi ta’minlab, ishonchli va ijobiy muhitni shakllantirishga ko‘maklashadi.
Individual ishslash	Har bir o‘quvchining ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos yondashish imkoniyatini yaratish.	O‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvni ta’minlab, emotsional xavfsizlikni oshiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni emotsional xavfsiz muhitni loyihalashga tayyorlash jarayoni nazariy bilimlar bilan bir qatorda o‘quvchilarning hissiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘sadigan amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. Biz tomonimizdan taqdim etilgan metodik yondashuvlar, xususan, integrativ o‘qitish, reflektiv yondashuv, psixologik treninglar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali emotsional xavfsizlikni ta’minlashning samarali mexanizmlari taklif etildi. Ushbu metodlar o‘qituvchilarning o‘z hissiyotlarini boshqarish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos pedagogik muhit yaratish va stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Ushbu yondashuvlar ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida emotsional xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar va treninglarni keng joriy etish zarur.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Mazkur tadqiqot o‘qituvchilarning kasbiy malakasini yuksaltirish va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish uchun mustahkam nazariy va amaliy asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarni emotsiyal xavfsiz pedagogik muhitni loyihalashga tayyorlash, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish, hamda ta’lim tizimining global tendentsiyalariga moslashish uchun imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 21.02.2024 yildagi “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha o‘zbekistonning beshinchi davriy ma’ruzasi yuzasidan bmtning bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalarini amaliyatga tatbiq etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori, 4068-IV-son.
2. Daniel Goleman / Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ/1995.
3. D.H Pink/ Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us/2009
4. M.R. Sobirova. “Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari tatbiqi”/ “Academic research in educational sciences” 2021 yil (ARES) ilmiy jurnal 3-jild, 11-son.
5. Кабанова, Л.И. Воспитание личности в школе: Учебное пособие. - М.Педагогика, 2005
6. Козлова, Е.В. (2021). Роль педагога в формировании ценностно-смыслового подхода в воспитании детей в современной школе. Вопросы образования, 1(40), 120-135.
7. Максимова, Н.В. (2022). Актуальные проблемы воспитания детей в современной школе: теория и практика. Педагогическая наука: теория и практика, 1(108), 34-45.
8. Ruzikulovna, S. D. (2021). The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes. JournalNX, 7(11), 78-82.
9. M.X.Xolnazarov, M.Q.Muhliboyev —Yosh va pedagogik psixologiya “Fan va texnologiya”- Toshkent-2014.; 208 bet.
10. <https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarurkonikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida>
11. <https://www.xabar.uz/talim/talim-dolzarb-masala>

